



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

*Sa'dullayeva Sabrina Sabohiddinova
CHDPU Turizm fakulteti XTA yo'nalishi
1-bosqich talabasi*

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda nutq bizning kundalik hayotimizda ham shaxsiy ham professional kontekstsda hal qiluvchi ro'l o'ynaydi. Yana shuni ham aytish kerakki, yuz berayotgan globallashuv jarayoni va jamiyatni isloh qilish sharoitida yangicha fikrlovchi shaxslarni tarbiyalash ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlar kiritishni talab qiladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik, intellektual jihatlar, strategiya intellekt.

DEVELOPMENT OF SPEECH SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN

ABSTRACT

Nowadays speech plays a crucial role in our daily lives, both in personal and professional contexts. It should also be said that the education of new thinkers in the conditions of the on going process of globalization and reform of society requires serious changes in the education system.

Key words: strategy, intellectual sides, intellect, pedagogic.

РАЗВИТИЕ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

АННОТАЦИЯ

Сегодня речь играет решающую роль в нашей повседневной жизни, как в личном, так и в профессиональном контексте. Следует также сказать, что воспитание новых мыслителей в условиях продолжающегося процесса глобализации и реформирования общества требует серьезных изменений в системе образования.

Ключевые слова: стратегия, интеллектуальный аспект, интеллект, педагогический.

KIRISH

Gapirish, nutq faoliyatining turi sifatida og'zaki fikr bayon etish demakdir. Gapirish biror fikrni inkor etish maqsadida muayyan tildagi leksik grammatik va talaffuz hodisalarini qo'llashdan iborat. Ma'lumki, vatanni sevish beshikdan



boshlangani kabi, ta’lim tarbiya ham beshikdanoq, hattoki, bola tug’ilmaside danoq berila boshlanishi kelajakdagi ijobiy natijalarga sabab bo’ladi.

Mamlakatimiz yoshlariga erta ta’lim-tarbiya berish masulyatini hozirda yurtimizda faoliyat yuritayotgan maktabgacha ta’lim muassasalar o’z zimmasiga olgan. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bilimlarni berish shakli mashg’ulotdir. Mashg’ulotlar jarayonida bolaning nutqi rivojlanib undagi grammatik va fonetik qirralari sayqallanib, til boyligi oshib borishi bilan bir qatorda undagi psixologik va intellektual jihatlari rivojlanib boradi. Nutq o’stirish nafaqat bolaning so’z boyligini oshirish, balki uning muloqot qobilyatini rivojlantiradi, undagi bilish jarayonlarinig, shu jumladan bolaning tafakkurini o’stirishda ham muhim vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHILILI VA METODOLOGIYA

Bolalarda nutq qobilyatlarini rivojlantirish qiziqarli tadqiqot sohasi bo’lib, tadqiqotchilar bu jarayonni tushunishga katta hissa qo’shdilar. Tilga boy muhit yaratish, mazmun muloqotni osonlashtirish, mos til modellarini taqdim etish savodxonlikni oshirish bolalarning nutq qobilyatini oshirishga yordam beradi. Bu sohada olib borilayotgan izlanishlar tilni o’zlashtirishning nozik jihat va bolalarning nutqiy qobilyatini rivojlantirishning samarali strategiyalarini yoritishda davom etmoqda.

Bolalar bilan ishslash va o’qituvchikik borasidagi o’z tajribalarini Ye.A Flerina maktabgacha tarbiya muassasalarida jonli so’z nomli institutlar uchun birinchi o’quv qo’llanmasida aks ettirgan. Ushbu qo’llanmaning asosiy bo’limlari og;zaki nutq, suhbat, badiiy o’qish va bolalarga hikoya qilib berish hamda bolalarning o’zlari hikoya qilib berishlariga bag;ishlangan. Bundan tashqari bola og’zaki nutqni o’rganib brogan sari unda ko’nikma paydo bo’la boshlaydi.

Tadqiqotchilardan L.P. Fedorenka va G.A. Fomichevalar metodik jihatdan muhim g’oyani ilgari surdilar. “Bolalarni nutqqa o’rgatish- deb yozadi ular,- unga til materiyasini (nutq organlarini mashq qildirish) tol belgilari, leksik va grammatik belgilar (intellektni mashq qildirish) ma’nosini tushunishni osonlashtirish, leksik va grammatik belgilar yordamida (ehtiros va tuyg’ularni mashq qildirish) borligini baholanishni ifodalananashi demakdir.

Bundan tashqari buyuk slavyan pedagogi Xan Amos Komenskiy G’arbning buyuk olimlaridan biri hisoblanadi. Uning pedagogik tizimi o’sib kelayotgan avlodni insoniylik, tinchliksevarlik, tenglik va birodarlik ruhida tarbiyalash g’oyalari bilan yog’rilgan. Uning fikriga ko’ra “Insin zotini himoyalash eng avvalo beshikdan boshlanishi lozim” Bundan ortiq sodda va dono fikr bo’lmaydi. Uddaburon olimlar qaysi bir ijtimoiy tarbiya tizimini kashf qilmasinlar, bari bir bolalar hayot kechiradigan, ular jismonan va ma’nana rivojlanadigan muhit sifatida oila eng samarali tarbiya tizimi hisoblanadi. Bizga ma’lumki, bolaning nutqini o’z ona tilisidan boshqa tilga to’g’irlash va ravon gapirishga o’rgatish biroz qiyinchiliklar paydo qiladi. Shunday ekan, har

qanday faoliyatni o'rganish yoki o'rgatish paytida mashq markaziy o'rinni egallaydi. Nutq malakalarini o'zlashtirish deganda, kichik hajmli soda birliklardan so'z, so'z birikmasi, gapdan boshlanib yirik miqiyosdagi murakkab matngacha bo'lgan nutq hodisalarini o'z ichiga olgan mashq bajarish jarayoni tushuniladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish asosan bola bilan ko'proq birga bo'ladigan yaqinlariga bog'liq bo'ladi.

Aslida shuni ham tan olishimiz kerakki 5-7 yosh oralig'idagi bolalarning xotirasini yaxshi ishlashi, ma'lum bir narsani yodda saqlash va ancha muddatgacha unutmasligi fanda ham isbotlangan. Har qanday holatda ham bola bilan muloqot qilganimizda talaffuzimizni, gapirish ohangimiznu ravon va rollarga kirishib ifoda etsak bolaning nutqi hamda dunyoqarashi kengayadi. Bolaga qaysi til o'rgatishni maqsad qilganlar shu o'rgatmoqchi bo'lgan tilida yozilgan kitoblarni mutoalaa qilib bersa va bolaga ham imkonи boricha o'qitishga harakat qilsa albatta ijobiy o'zgarishlarni kuzatish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inson tajribasining tarixan shakillangan mazmuni so'zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o'zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq va til bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo'l ochuvchi omil hisoblanadi. Nutqni egallab olish quyida aytganimizdek maktabgacha bo'lgan yoshga to'g'ri keladi. Demak, maktabgacha bo'lgan davr nutqning yanada yaxshi rivojlanishiga yordam beradi. Shu jumladan nutqni takomillashtirish uchun samarali bo'lgan mashqlardan foydalanib turilsa rivojlanishning yuqori qismiga yetish mumkin.

REFERENCES

1. D.R Babayeva Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi (darslik)- T. Barkamol fayz media, 2018-432b
2. Flerina Ye.A. Maktabgacha tarbiya muassasalari jonli so'z,-M. 1933
3. Jamol Jalolov. Chet tili o'qitish metodikasi-T. o'qituvchi, 2012.